



**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY JAZOLARGA OID
QARORLARNI IJRO ETISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Mamajonov Amirxon Akmaljon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi 317-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining ma'muriy jazolarga oid qarorlarni ijro etish tushunchasi, maqsad va vazifalari, faoliyatning asosiy yo'nalishlari, ma'muriy jazolarga oid qarorlarni ijro etish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va bu sohadagi muammolar tahlili yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Huquqbazarliklar profilaktikasi, ma'muriy jazo, ma'muriy qaror, ijro etish, ma'muriy bayonnomma, kvitansiya.*

Abstract: *In this article, the concept, goals and tasks of prevention inspectors in the execution of decisions on administrative punishments, the main directions of activity, specific features of the activity of the execution of decisions on administrative punishments and the analysis of problems in this field are highlighted.*

Key words: *Crime prevention, administrative penalty, administrative decision, execution, administrative report, receipt.*

Ma'muriy jazo - ma'muriy huquqni buzuvchi shaxslarga nisbatan davlat organi yoki mansabdor shaxslar tomonidan ko'rildigan chora. Ma'muriy jazo majburlovchi, ayni vaqtida tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan choradir. Ma'muriy jazoning quyidagi turlari mavjud: jarima; ma'muriy xuquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish; ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish; muayyan shaxsni unga berilgan maxsus xuquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish; ma'muriy qamoqqa olish (O'zbekiston Respublikasining MJK, 23–29moddalar). Ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlik uchun boshqa davlat fuqarolari va fuqoroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborilishi mumkin

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda jazo tayinlanadi, yani hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasiga kora jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasıdır. Jazo quyidagi maqsadda qollaniladi:

- Mahkumni axloqan tuzatish;
- Jinoiy faoliyatini davom ettirishiga tosqinlik qilish
- Mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish.



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida jazo tizimi mustahkamlangan bolib unda ozodlikni cheklash jazosi ham orin olgan. Biz quyida ushbu jazoning qollanilish shartlari, muddatlari va qanday shaxslar doirasiga qo'llash mumkin emasligini muhokama qilamiz. Ozodlikni cheklash jazosi jinoyat togrisidagi qonunchilikka nisbatan yangi kiritilgan jazo choralaridan biri hisoblanadi. Ushbu jazo turi Ozbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagи O'RQ-389-sonli qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan. Jinoyat kodeksiga mazkur jazo turi oz tabiatiga kora ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil jazo sifatida kiritilgan. U mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash vazifasini bajaradi. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 481-moddasiga kora ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat. Bunda yashash joyi deganda, mahkumning doimiy yashash joyidagi uylar, ko'p qavatlari uylardagi kvartiralar, boshqa imoratlardagi yashash uchun mo'ljallangan xonalar va boshqa turar joylar tushunilishi lozim (Uy-joy kodeksi 10-moddasi). Sud hukmining qaror qismida: ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo, yashash joyini butunlay tark etishni taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashning mazmuni aniq ko'rsatilishi lozim. Ozodlikni cheklash bir oydan besh yilgacha muddatga, voyaga yetmaganlarga esa olti oydan ikki yilgacha tayinlanadi hamda mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organining jazolarni ijro etish inspeksiyasi yoki sud tomonidan belgilangan boshqa organ nazorati ostida o'taladi.

Ma'muriy jazoni qo'llash asosan ozodlikni cheklash, uni mahkumning yashash joyida o'tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo'yin tovslashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi. Ozodlikdan cheklash jazosi Jinoyat kodeksining Maxsus qismining ijtimoiy xavfi katta bolmagan va uncha ogir bolmagan jinoyatlarni qamrab olgan moddalari sanksiyasida belgilab qoyilganligini korishimiz mumkin. Misol uchun JK 109-moddasi 2-qismi(qasddan badanga yengil shikast yetkazish) sanksiyasida 1 yilgacha ozodlikni cheklash, JK 124-moddasining (bolani almashtirib qoyish) sanksiyasida 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi nazarda tutilgan. Xuddi shunday jazo jinoyat kodeksining boshqa ko'plab moddalari sanksiyasida ham nazarda tutilgan. Bularning hammasi jazoning maqsadlariga samarali erishish uchun qo'llaniladigan choralar hisoblanadi. Sud ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxsning zimmasiga o'zi yetkazgan moddiy va ma'naviy zararning o'rnini qoplash, ishga yoki o'qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga ko'maklashuvchi boshqa majburiatlarni yuklashi mumkin. Ushbu majburiatlarni yuklash asosi sud hukmining tavsif qismida ko'rsatilishi lozim. Agar ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxs jazoni o'tash davrida o'zining jinoiy qilmishlarini anglab yetgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararning o'rnini qoplagan bo'lsa, sud mahkumga nisbatan ilgari tayinlangan taqiqlarni (cheklashlarni) to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 443-moddasi beshinchi qismiga muvofiq mahkumni unga yuklatilgan majburiyat (taqiq)lardan to'liq yoki qisman ozod etish jazoni ijro etish idoralari



taqdimnomasiga binoan sud tomonidan JPK 541- moddasida belgilangan tartibda amalgamashiriladi. Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, sud ozodlikni cheklash jazosining o'talmay qolgan muddatini boshqa turdag'i jazo bilan almashtirishi mumkin. Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tash tartibi va shartlari mahkum tomonidan buzilganligi uchun jazolarni ijro etish inspeksiyasi unga nisbatan ogohlantirish tarzidagi intizomiy jazo chorasi qo'llaydi. Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi sudga mahkum uchun ozodlikni cheklashning o'talmagan muddatini jazoning boshqa turiga almashtirish haqida taqdimnomalar kiritadi.

Xulosa o'mnida shuni aytish joizki, ma'muriy jazolarga oid qarorlarni ijro etish faoliyatida profilaktika inspektorlari ma'muriy bayonnomasi yoki ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida qaror chiqaradi va bu qarorlarning ijrosini ta'minlaydi. Shuningdek bu faoliyat huquqbuzarliklarning oldini olishga samarali hissa qo'shadi.